DEVELOPMENT OF SCIENCE

ISNN 3030-3907

2026 AUGUST

ISSUE - 8
VOLUME -1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

D E V O S

РАЗВИТИЕ НАУКИ

ILM-FAN TARAQQIYOTI

Development of science

Scientific journal
Ilmiy jurnal
Научный журнал

AUGUST 2026
Issue - 8, VOLUME - 1

ISSN 3030 -3907

*The scientific journal **«Development of Science»** was registered by the State on April 15, 2024 with certificate number №256445.*

***«Ilm fan tarqqiyoti»** ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro'yxatidan o'tgan.*

*Научный журнал **«Развитие науки»** был зарегистрирован государством 15 апреля 2024 года под номером свидетельства № 256445.*

The proceedings will be provided to the authors in electronic form (PDF format). The authors bear full responsibility for the content of the articles included in the proceedings, the accuracy and reliability of the statistical data and regulatory documents cited therein, as well as for any opinions and judgments expressed in their articles. Articles that do not meet the established requirements will not be included in the proceedings. The Organizing Committee reserves the right to shorten the text of an article, make minor editorial corrections, and assign submissions to the appropriate sections.

To'plam elektron ko'rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To'plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'ul hisoblanadilar.Talablarga javob bermaydigan maqolalar to'plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo'mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

Сборник предоставляется авторам в электронном виде (в формате PDF). Авторы несут полную ответственность за содержание статей, включённых в сборник, достоверность приведённых в них статистических данных и нормативных документов, а также за изложенные мнения и суждения. Статьи, не соответствующие установленным требованиям, в сборник не включаются. Организационный комитет оставляет за собой право сокращать текст статьи, вносить отдельные редакционные исправления и распределять материалы по соответствующим секциям.

EDITOR-IN-CHIEF:
Temirov Alisher Hashim oglu - Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Associate Professor.
CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich - Doctor of Technical Sciences, Professor
MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Faheem Uddin
Professor,Iqra university, Pakistan
Siddikova Sadokat Gafforovna
DSc, Rector of Bukhara State Technical University, Uzbekistan
Dr. Amit Rawal
Professor, Department of Textile and Fibre Engineering Indian Institute of Technology Delhi, India
Alexander Vitalievich Dudan
Associate Professor, Euphrosyne Polotskaya State University of Polotsk, Republic of Belarus
Bozorov Gayrat Rashidovich
Professor Bukhara State Technical University, Uzbekistan
Vladimir Mikhailovich Kapustin
Professor,Gubkin Russian State University of Oil and Gas (National Research University),Russian Federation
Shaoliang Chen
Ph. D., Engineer,Cement Science and New Building Materials Research Institute, China
Tukhtayeva Zebo Sharifovna
Bukhara State Technical University, Professor.
Kodirov Abduakhad Abdurakhimovich
Karshi State University, Professor
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
General Scientific Secretary of the Karakalpakstan Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Professor
Tursunov Kakhor Shonazarovich
Karshi State University, Professor
Sharipov Muzaffar Samandarovich
Bukhara State University, Professor.
Alikulov Rustam Valiyevich
Termez State University, Professor
Makhmudov Mukhtar Jamolovich
Bukhara State Technical University, Professor.
Oral Kurganbekovich Beyseynbayev
Professor,M. Auezov South Kazakhstan University,Republic of Kazakhstan
Tropov Khamza Tursunovich
Samarkand State University, Professor
Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Bukhara State Technical University, Professor.
Saidakhmedova Nodira Ilkhomovna
Tashkent State University of Economics, Professor

ORGANIZATIONAL STRUCTURE:

Safarov J.A.-*editor*
Panoyev N.Sh. -*editor*
Buranov N.G. -*assistant editor*
Shodiyev D.X.- *layout editor*
Izzatov D.X. - *layout editor*
Urinov J.B. - *layout editor*
Temirov A.T. - *graphic designer*
Temirov I.G. – *layout designer*

Changes to the composition of the Editorial Board, including the appointment of new members or the removal of existing members, shall be made by the Editor-in-Chief.

www.devos.uz

ISSN 3030-3907

INGLIZ BALLADALARI VA O‘ZBEK QAHRAMONLIK EPOSI AN’ANALARI

Mahmudova Nilufar Maqsudovna
Mustaqil izlanuvchi
E-mail: mahmudovanilufar800@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek va ingliz she’riyatida urush motivining tipologik transformatsiyasi va badiiy talqinini qiyosiy-tahliliy yo‘sinda o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqola Erkin Vohidovning “Nido” (1970-yillar) hamda Carol Ann Duffyning “War Photographer” (1985) she’rlari materiallari asosida olib borildi. Mazkur poetik matnlar forma, leksik-semantik qatlam, obrazlar tizimi, emotsional tonalilik, xronotop va ideologik xabar nuqtayi nazaridan qiyoslanib tahlil qilindi. Maqolada urushning individual va kollektiv xotiradagi badiiy reprezentatsiyasi, poetik subyekt pozitsiyasi, guvohlik va befarqlik fenomeni, shuningdek, “xotira – unutish”, “shahidlik – deformatsiya (aberratsiya)” kabi binar semantik modellar ochib berildi. O‘zbek she’riyatida urush motivi milliy fojea, ma’naviy qarz va umumiy xotira kontekstida talqin etilsa, ingliz poeziyasida u posttravmatik tajriba, axloqiy distansiya va o‘quvchi mas’uliyati masalalari orqali ifodalanishi ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: urush motivi, o‘zbek she’riyati, ingliz she’riyati, tipologik transformatsiya, badiiy tasvir

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительно-аналитическому изучению типологической трансформации и художественной интерпретации мотива войны в узбекской и английской поэзии. Исследование проведено на материале стихотворений Эркина Вахидова «Нидо» (1970-е годы) и Кэрол Энн Даффи «Военный фотограф» («War Photographer», 1985). Указанные поэтические тексты были подвергнуты сопоставительному анализу с точки зрения формы, лексико-семантического уровня, системы образов, эмоциональной тональности, хронотопа и идеологического послания. В статье раскрываются художественная репрезентация войны в индивидуальной и коллективной памяти, позиция поэтического субъекта, феномены свидетельствования и безразличия, а также бинарные семантические модели «память — забвение», «жертвенность — деформация (аберрация)». Показано, что в узбекской поэзии мотив войны интерпретируется в контексте национальной трагедии, нравственного долга и общей исторической памяти, тогда как в английской поэзии он выражается через призму посттравматического опыта, этической дистанции и ответственности читателя.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: мотив войны, узбекская поэзия, английская поэзия, типологическая трансформация, художественный образ.

Annotation. This article is devoted to a comparative and analytical study of the typological transformation and artistic interpretation of the war motif in Uzbek and English poetry. The research is based on the poetic texts “Nido” (1970s) by Erkin Vohidov and “War Photographer” (1985) by Carol Ann Duffy. These poems are examined comparatively from the perspectives of form, lexico-semantic structure, imagery system, emotional tonality, chronotope, and ideological message.The article explores the artistic representation of war in individual and collective memory, the position of the poetic subject, the phenomena of witnessing and indifference, as well as binary semantic models such as “memory–forgetting” and “martyrdom–distortion (aberration).” It is demonstrated that in Uzbek poetry the war motif is interpreted within the framework of national tragedy, moral responsibility, and shared historical memory, whereas in English poetry it is articulated through post-traumatic experience, ethical distance, and the reader’s responsibility.

Keywords: war motif, Uzbek poetry, English poetry, typological transformation, artistic imagery.

KIRISH.

Ingliz xalq ogʻzaki ijodida balladalar muhim oʻrin tutadi. Balladalar asosan xalq orasida ogʻzaki ravishda tarqalgan she’riy asarlar boʻlib, ularda tarixiy voqealar, sevgi, sadoqat, jangovar jasorat va turli ijtimoiy hodisalar tasvirlanadi. Ingliz balladalari sodda syujet, takroriy misralar va ohangdorlik bilan ajralib turadi. Ular odatda kuylab ijro etilgan va xalq orasida avloddan-avlodga oʻtib kelgan.

Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida esa qahramonlik eposlari muhim oʻrin egallaydi. Qahramonlik eposlari xalqning tarixiy xotirasi, orzu-umidlari va milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu eposlarda jasur qahramonlarning vatanni himoya qilishi, adolat uchun kurashi, xalq manfaatini himoya qilishi tasvirlanadi. Masalan, “Alpomish”, “Goʻroʻgʻli” kabi eposlar oʻzbek xalqining qahramonlik an’analarini namoyon etadi.

Ingliz balladalari bilan oʻzbek qahramonlik eposlari oʻrtasida ayrim oʻxshashliklar mavjud. Har ikkisi ham xalq ogʻzaki ijodiga mansub boʻlib, tarixiy voqealar va qahramonlik ruhini aks ettiradi. Shuningdek, ular ogʻzaki ijro an’anasi orqali avloddan-avlodga yetib kelgan.

Shu bilan birga, ular oʻrtasida farqlar ham mavjud. Ingliz balladalari koʻproq qisqa hajmli, sodda syujetli va lirik-dramatik xarakterga ega boʻlsa, oʻzbek qahramonlik eposlari keng syujetli, koʻp qismli va epik tasvirlarga boy boʻladi.

ISSN 3030-3907

Eposlarda qahramonlarning hayoti, sarguzashtlari va kurashlari batafsil bayon qilinadi.

Urush adabiyotda eng universal va chuqur mazmunga ega bo‘lgan mavzulardan biridir. Chunki u insoniyatning og‘ir sinovlar davridagi holatini va tajribasini aks ettiradi. Urush faqat shaxslar va xalqlar hayotiga o‘lim ta’sir ko‘rsatmaydi, balki madaniyatlar va sivilizatsiyalar qadriyatlari hamda e’tiqodlariga ham zarba beradi. Urush adolat va axloq, jasurlik va qo‘rqoqlik, sadoqat va xiyonat, muhabbat va nafrat tushunchalariga qarshi turadi. Shuningdek, urush yozuvchi va san’atkorlarning ifoda va ijodiy yaratish jarayonlariga ilhom baxsh etadi. Ular so‘z va tasvir vositasi orqali urush haqiqatlari va urush kayfiyatlarini aks ettiradilar. Urushga tanqidiy munosabat bildirib, unga qarshi chiqadilar, urush qurbonlarini yodga olib, ular uchun motam tutadilar va tinchlikka umid qiladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Jahon adabiyotida urush mavzusi insoniyat uchun eng og‘riqli va dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘plab adiblar ijodida o‘z aksini topgan. O‘zbek adabiyotida ham, ingliz adabiyotida ham urushning inson ruhiyatiga, jamiyat hayotiga ko‘rsatgan ta’siri turli badiiy vositalar orqali yoritilgan. Bu jihatdan o‘zbek shoiri Erkin Vohidovning “Nido” she’ri hamda britaniyalik shoir Carol Ann Duffyning War Photographer she’ri urush fojiasini tasvirlashda muhim adabiy namunalar hisoblanadi.

Erkin Vohidovning Nido she’rida urush insoniyat boshiga solgan musibatlar, inson qalbidagi iztirob va faryod badiiy tasvirlar orqali ifodalangan. Shoir she’rda urush oqibatida vayron bo‘lgan taqdirlar, ota-onasiz qolgan bolalar, iztirobga to‘la inson qalbini tasvirlab, insoniyatni tinchlikni asrashga chorlaydi. “Nido” asari o‘z mohiyatiga ko‘ra inson qalbidan chiqqan og‘riqli hayqiriq, ya’ni urushga qarshi norozilik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. She’rda lirizm, kuchli emotsional ohang va ramziy obrazlar orqali tinchlik g‘oyasi ilgari suriladi.

Erkin Vohidovning “Nido” dostoni Ikkinchi jahon urushi oqibatlarini bevosita shoirning shaxsiy xotirasi va oilaviy fojeasi orqali ifodalashi bilan xarakterlanadi. Tadqiqotchilar dostonda shoirning urushda halok bo‘lgan otasi Cho‘yanboy Vohidov xotirasi, farzandning ota mehriga bo‘lgan ehtiyoji hamda urush sabab yuzaga kelgan yetimlik va ayriliq motivlari markaziy o‘rin tutishini qayd etadi.[3]

“Nido”dagi urush oddiy tarixiy hodisa sifatida emas, balki inson taqdirini o‘zgartiruvchi fojiaviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Urush frontdagi jang manzaralaridan ko‘ra, uning inson qalbida qoldirgan izlari orqali ochiladi. Ayniqsa,

[3] Hamrayev I.A. “erkin vohidovning "Nido" dostoning g'oyaviy va badiiy ahamiyati” *«MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 3 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ*

ISSN 3030-3907

ota va farzand o‘rtasidagi ayriliq urushning eng og‘riqli oqibati sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan dostonning poetik markazida “urush – ayriliq – xotira – sog‘inch” semantik zanjiri shakllanadi.

Dostondagi xotira individual bo‘lsa-da, uning mazmuni kollektiv xarakterga ega. Bir bolaning otasini yo‘qotishi butun bir avlodning urush tufayli yetim qolishi, ayollarning beva bo‘lishi va oilalarning parokanda bo‘lishi bilan umumlashadi. Demak, Vohidov poetikasida individual xotira milliy xotira darajasiga ko‘tariladi.

Carol Ann Duffyning “War Photographer” she’rida esa urush voqealari bevosita jang maydonidan emas, balki urushni suratga oluvchi fotograf nigohi orqali tasvirlanadi. She’r qahramoni urush hududlarida olingan suratlarni tartibga solayotgan paytda boshidan kechirgan ruhiy kechinmalarini eslaydi. Fotograf obyektivi orqali urushning dahshatli manzaralari — vayronagarchilik, insonlarning iztirobi va o‘lim tasvirlari namoyon bo‘ladi. Shoira urushning inson ruhiyatiga qoldiradigan jarohatlarini chuqur psixologik tasvirlar orqali ochib beradi.

Carol Ann Duffy esa 2009–2019-yillarda Buyuk Britaniyaning davlat shoiri bo‘lgan va “War Photographer” (“Urush fotografi”) she’rini jangovar fotosuratchi-do‘stlariga atab yozgan. Ikkala shoir ham urushni turli pozitsiyasidan va turli badiiy uslublarda o‘rganadilar, ammo ular har ikkalasi jangovar dahshatlar va azoblarni, shuningdek urushga bevosita jalb qilinmagan kishilarning befarqligi va ajralishini aks ettiradilar. Maqolada har ikkala shoirning poetik vositalardan tasvir, isti’ora, reministseniya, takror, qofiya, ironiya va sarkazm orqali xabarlarni kuchaytirish va ta’sirchanlikka erishish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, urush haqiqati bilan tinchlikdagi bexabarlilik orasidagi kontrast va urushning shaxsiy-ijtimoiy jihatlari yaqinlarni yo‘qotish, zo‘ravonlik guvohi bo‘lish travmalari, guvoh yoki ishtirokchi bo‘lish ikkilamchiligi muhokama qilinadi. Ushbu tahlil ikkala she’rning o‘quvchini urush oqibatlari va sabablari haqida o‘ylashga, shuningdek o‘z roli va mas’uliyati masalasiga qaytishga chaqirish ekanini isbotlaydi.

Erkin Vohidovning “Nido” (Nido) va Carol Ann Duffyning “War Photographer” (“Jangovar fotograf”) she’rlarini solishtirish usuliga asoslangan. Erkin Vohidov sovet rejimi davrida xalqining qiynalib o‘tgan hayoti, Ikkinchi jahon urushi oqibatlari haqida yozgan. “Nido” she’ri jangda jon bergan otiga bag‘ishlangan marosimiy qasida sifatida yozilgan; asarda ingliz mamlakatidagi tinch qishloq hayoti bilan chet eldagi urush dahshatlari orasidagi ziddiyat aks etadi. Carol Ann Duffy 2009-yilda Ingliz davlat shoirlari lavozimiga saylangan birinchi ayol shoir. “War Photographer” asari u o‘rtoqlaridan jangovar fotosuratchilar Don McCullin va Philip Jones Griffithsga bag‘ishlangan. She’r fotografning kasbiy burchi va shaxsiy hissiyotlari o‘rtasidagi muvozanat, shuningdek urush rasmlarini iste’mol qiluvchi o‘quvchilarning befarqligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Asarlarni forma, til, tasvir va ulguriydagi xabarlari jihatidan tahlil qilamiz. **Forma jihatdan** har ikkala she'r to'rtta banddan iborat, lekin "Nido"da qofiya sxemi va vazn o'zgaruvchan, "War Photographer"da esa ABBCDD tartibidagi barqaror qofiya va iambik pentametr saqlangan. Bu "Nido"ning ifodali-impulsiv, "War Photographer"ning nazoratli-strukturali uslubda yozilganini ko'rsatadi. **Til jihatdan** har ikkala asar sodda va bevosita so'zlar bilan yozilgan, ammo "Nido"da "otajon", "yolg'izim", "qo'zim" kabi o'zbekcha leksik birliklar ishlatilib, yaqinlik va madaniy identifikatsiya hosil qilinadi. Erkin Vohidov. "Nido" *Parcha* (boshlanishi, 1-bayit):

"Otajon, yolg'izim, qo'zim, jonim,
Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q
Qalbimni o'rtamoqda so'ngsiz armonim,
O'sha olis yurtda qon kechib hozir…" [1]

Izoh: Ota shaxsiga qaratilgan sanoatli murojaat ("yolg'izim, qo'zim") o'zbek xalq she'riyatiga xos endearment-formulalaridir. "Qora o'q" metaforasi o'limning aniqligini, "songsiz armon" pleonazmi esa g'amning chegarasizligini kodlaydi. "Olis yurt" so'zi sovet janglarida halok bo'lgan otaning chet elda qabrini anglatib, urushning mehnat qishlog'iga yetgan masofasini ko'rsatadi.

"War Photographer"da "spools", "solutions", "supplement" kabi texnik atamalar fotografning kasbiy hayoti va uning emotsional ajralishini anglatadi.

"In his darkroom he is finally alone
with spools of suffering set out in ordered rows.
The only light is red and softly glows,
as though this were a church and he a priest…"[4]

Izoh: "Spools of suffering" – alliteratsiya va metaforsintez orqali yorug'likka chiqmagan aziyatlarning material (plastik rulon) ko'rinishiga keltirilishi; bu fotografning professional ob'ektivini shaxsiy qayg'u bilan almashtiradi. "Church / priest" similesi jang rasmlarini "baptise" qilish, ya'ni ularni muqaddas xotira sifatida saqlash niyatini bildiradi. **Tasvir jihatdan** har ikkala she'r urush ta'sirini berish uchun jonli va zid tasvirlardan foydalanadi. "Nido"da "Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q", "Qalbimni o'rtamoqda so'ngsiz armonim", "O'sha olis yurtda qon kechib hozir" kabi isti'oralar shoirning g'am va yo'qot hissini beradi. "War Photographer"da "as though this were a church and he a priest", "to fields which don't explode beneath the feet", "a hundred agonies in black and white" kabi sinoqli tasvirlar fotografning axloqiy ziddiyatini va olamlar farqini ta'kidlaydi. Duffy, Carol Ann. "War Photographer"

[4] Vohidov, Erkin. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2020.

ISSN 3030-3907

Parcha (3-stanza):

“A hundred agonies in black and white
from which his editor will pick out five or six
for Sunday’s supplement.
The reader’s eyeballs prick
with tears between the bath and pre-lunch beers.” [5]

Izoh: “A hundred agonies in black and white” – partitiv soni (“hundred”) va rang kontrasti orqali ko‘plikdagi og‘riqning matritsaga (fotografik nega) sig‘ishi; oxirgi satrda “bath – pre-lunch beers” kundalik ritmi urush rasmi qo‘zg‘atgan “tezda o‘tadigan ko‘z yoshi” ni kontrastlaydi. Bu postmodern “consumption of trauma” fenomenini qoralaydi.

Kayfiyat (ton): Har ikkala asar g‘amgin va g‘azabli kayfiyatda yozilgan, ammo “Nido” shaxsiy-emotsional, “War Photographer” esa ajralgan-ironik uslubda bajarilgan. “Nido” otasiga bo‘lgan muhabbat, urushga nisbatan nafrat va umidsizlikni bildiradi. “War Photographer” fotografning bechoralik, aybdorlik hissini va o‘quvchilarning befarqligiga nisbatan sinizmni ochib beradi. **Xabar (mazmuniy xulosa):** Har ikkala she’r antiharbiy g‘oya va inson azobini anglatadi, lekin “Nido” vatanparvarona va optimistik, “War Photographer” esa tanqidiy va pessimistik yondashuvda yozilgan. “Nido” otaning jasurligi va xalqining hurriyat kurashini yuksak tutadi, kelajak avlodi uchun yaxshiroq umid qiladi. “War Photographer” esa fotografning ishinig maqsad va samarasini so‘rab, jamiyatning befarqligini ochib beradi.

Ikki asarda poetik subyektning farqi

Ikki ijodkor urushni turli poetik subyektlar orqali tasvirlaydi.

1-Jadval

Mezon	**Erkin Vohidov – “Nido”**	**Carol Ann Duffy – “War Photographer”**
Poetika subyekti	Urush qurboni va uning xotirasini tashuvchi farzand	Urush guvohi – fotograf
Urush bilan munosabat	Bevosita oilaviy va milliy fojiaviy xotira	Bilvosita guvohlik va professional faoliyat
Asosiy hissiyot	Sog‘inch, iztirob, ayriliq	Travma, aybdorlik, ruhiy begonalashuv
Xotira turi	Individual → kollektiv	Individual → global
Urush obrazi	Milliy fojea	Global insoniy muammo

[5] Duffy, Carol Ann. *Selected Poems*. – London: Penguin, 2018.

ISSN 3030-3907

Asosiy konflikt	Farzand va yo‘qotilgan ota o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlik	Fotograf, urush qurbonlari va befarq auditoriya o‘rtasidagi axloqiy konflikt
Asosiy g‘oya	Urush xotirasini unutmaslik	Urush dahshatini ko‘rish va unga befarq bo‘lmaslik

Bu qiyosdan ko‘rinadiki, Vohidovda poetik subyekt **urushning bevosita qurboni xotirasini davom ettiruvchi shaxs** sifatida ko‘rinsa, Duffyda u **urushni ko‘rgan va boshqalarga yetkazishga urinayotgan guvoh** sifatida namoyon bo‘ladi.

Eng muhim nazariy nuqtalardan biri — **“xotira – unutish”** qarama-qarshiligini ikki asar asosida ochib berishdir.

“Nido”da xotira — axloqiy majburiyat. Ota xotirasini saqlash orqali farzand nafaqat o‘zining shaxsiy tarixini, balki urushda halok bo‘lgan butun avlod xotirasini asraydi. Shuning uchun xotira bu yerda **ma’naviy qarz** vazifasini bajaradi.

Duffy she’rida esa muammo boshqacharoq. Fotograf yuzlab azob-uqubatlarni suratga oladi, biroq gazeta muharriri ulardan faqat bir nechtasini nashrga tanlaydi. O‘quvchilar esa suratlarni qisqa muddatli hissiy ta’sir bilan qabul qiladilar.

Natijada urush qurbonlarining individual fojeasi ommaviy axborot vositasida qisqartiriladi, tanlanadi va iste’mol qilinadigan axborotga aylanadi. Bu holat **xotiraning ommaviy axborot vositalari orqali deformatsiyalanishi** masalasini yuzaga chiqaradi.

Demak:

“Nido”: xotira → saqlash → avlod → milliy xotira

“War Photographer”: xotira → tasvir → ommaviy axborot → befarqlik → unutish.

Har ikkala she’r urush dahshatlari va uning inson ruhiyatiga bergan oqibatlarini kuchli va ta’sirchan ifodalaydi. Ular sodda til, jonli tasvir, zid muhit kabi umumiy xususiyatlarga ega, lekin forma, kayfiyat va xabar jihatidan farq qiladi. “Nido” shaxsiy va emotsional, “War Photographer” esa professional va ironik uslubda yozilgan. “Nido” vatanparvar ruhda va optimistik, “War Photographer” tanqidiy va pessimistik yondashuvda bajarilgan. Har ikkala she’r o‘quvchi nuqtai-nazariga va afzalliklariga ko‘ra o‘ziga xos foyda va kamchiliklarga ega.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ikki asarda “xotira – unutish”, “guvohlik – befarqlik”, “shahidlik – deformatsiya” kabi binar semantik modellar urush

ISSN 3030-3907

motivining tipologik transformatsiyasini belgilovchi muhim poetik mexanizmlardir. Vohidovda urush xotirasi milliy-tarixiy va ma'naviy mazmun kasb etsa, Duffyda u global insoniy fojiaga, individual travma va jamiyatning axloqiy mas'uliyati muammosiga aylanadi.

Shunday qilib, milliy poetik tafovutlarga qaramay, "Nido" va "War Photographer" asarlarini birlashtiruvchi umumiy jihat — urushning jang maydoni bilan chegaralanmasligi, uning inson xotirasi va ruhiyatida davom etuvchi fojiaviy hodisa sifatida talqin qilinishidir. Mazkur asarlar urushni yodda saqlash, uning qurbonlarini unutmaslik va tinchlikning insoniyat uchun fundamental qadriyat ekanligini anglashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, urush motivining ikki milliy adabiyotdagi tipologik transformatsiyasi universal insoniy qadriyatlar va milliy tarixiy xotiraning o'zaro uyg'unligini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vohidov, Erkin. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2020.
2. Duffy, Carol Ann. *Selected Poems*. – London: Penguin, 2018.
3. McCullin, Don. *Unreasonable Behaviour: An Autobiography*. – London: Vintage, 2015.
4. Jones Griffiths, Philip. *Vietnam Inc.* – London: Phaidon, 2019.
5. Duffy, C. A. "War Photographer" (1985). She'rning poetik shakli, travma, xotira, fotografiya va axloqiy guvohlik masalalari bo'yicha tahliliy materiallar.
6. Hamrayev, I., Usmonova, U. "Erkin Vohidovning 'Nido' dostonining g'oyaviy va badiiy ahamiyati". *Modern Science and Research*, 2025
7. Hamrayev, I., Orziqulova, N. "Erkin Vohidovning 'Nido' dostonida metafora uslubiy vosita sifatida". *Modern Science and Research*, 2025

ISSN 3030-3907